O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Zanjabil uchun CODEX standarti

(CODEX STAN 218:1999, IDT)

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti

Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #Y1CI5OM5TX - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

So‘zboshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan ISHLAB CHIQILDI.

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yildagi 21-iyuldagi 26/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan TASDIQLANDI.

3 Ushbu standart CODEX STAN 218:1999 “CODEX STANDARD FOR GINGER” xalqaro standartning matni bilan aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standartni va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish, qayta ko‘rib chiqish yoki bekor qilish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarda chop etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston Respublikasi hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishli

STANDARTLAR INSTITUTI #Y1CI5OM5TX - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Zanjabil uchun CODEX standarti

Стандарт кодекса для имбиря

Codex standard for ginger

Amalga kiritish sanasi 01.08.2026 y.

1 Qo‘llanish doirasi

Ushbu standart Zingiber officinale Roscoe (Zingiberaceae oilasi) dan olingan mahsulot navlaridagi zanjabil ildizpoyalariga tatbiq etiladi va iste’molchiga zarur tayyorgarlikdan o‘tgan hamda qadoqlangan yangi ildizpoyalarni yetkazib berishni ta’minlashga xizmat qiladi. Sanoat qayta ishlash uchun mo‘ljallangan zanjabilga ushbu standart tatbiq etilmaydi.

2 Sifatga oid qoidalar

2.1. Minimal talablar

Barcha sinflarda, har bir sinf uchun belgilangan maxsus qoidalar va ruxsat etilgan cheklovlarga rioya qilgan holda, zanjabil quyidagi talablarga javob berishi kerak:

– butun bo‘lishi;

– sog‘lom bo‘lishi; iste’molga yaroqsiz chirigan yoki buzilgan mahsulotlarga yo‘l qo‘yilmaydi;

– toza bo‘lishi, ko‘zga ko‘rinadigan ifloslantiruvchi zarralardan deyarli holi bo‘lishi;

– tashqi ko‘rinishni buzadigan hasharot-zararkunandalar yetkazgan shikastlanishlardan deyarli xoli bo‘lishi;

– tashqi namlikdan xoli va yuvilgan taqdirda to‘g‘ri quritilgan, sovuq saqlash joyidan olib tashlanganidan keyin kondensatsiya hosil bo‘lmasligi kerak;

– begona hid va/yoki ta’msiz bo‘lishi;

– mustahkam bo‘lishi;

– ishqalanish izlari va tirnalishlarsiz bo‘lishi (yengil tirnalishlar, yaxshilab quritilgan bo‘lsa, nuqson hisoblanmaydi);

– mo‘ljallangan foydalanish uchun yetarlicha quruq bo‘lishi; po‘stlog‘i va hosil yig‘ish vaqtida qilingan kesimlar mutlaqo quruq bo‘lishi lozim.

2.1.1. Zanjabilning yetilganlik darajasi va holati shunday bo‘lishi kerakki, u quyidagilarga imkon bersin:

– tashish va yuklash-tushirish ishlariga bardosh bera olsin;

– belgilangan manzilga qoniqarli holatda yetib borsin.

2.2. Tasniflash

Zanjabil quyida belgilangan uchta sinfga tasniflanadi:

Rasmiy nashr

STANDARTLAR INSTITUTI #Y1CI5OM5TX - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

2.2.1. «Ekstra» sinfi

Ushbu toifadagi zanjabil yuqori sifatli bo‘lishi kerak. Ular nav va/yoki mahsulot toifasining xususiyatlariga mos kelishi lozim. Ildizpoyalar toza, shakli to‘g‘ri va nuqsonsiz bo‘lishi kerak, faqat mahsulotning mahsulot ko‘rinishini buzmaydigan, uning sifati, saqlanishi va qadoqdagi umumiy ko‘rinishiga ta’sir ko‘rsatmaydigan juda kichik sirt nuqsonlariga yo‘l qo‘yiladi.

2.2.2. I sinf

Ushbu sinfdagi zanjabil yaxshi sifatga ega bo‘lishi kerak. Ular nav va/yoki mahsulot toifasining xususiyatlariga mos kelishi lozim. Ildizpoyalar mustahkam, qurib qolish yoki burishish alomatlarisiz hamda unib chiqish belgilari bo‘lmasligi kerak. Quyida sanab o‘tilgan kichik nuqsonlarga ruxsat etiladi, biroq bu nuqsonlar mahsulotning tashqi ko‘rinishini buzmasligi, uning sifati, saqlanishi va qadoqdagi yaxshi mahsulot ko‘rinishiga ta’sir ko‘rsatmasligi shart:

– Ishqalanish natijasida yuzaga kelgan yengil po‘st tashqi nuqsonlariga, agar ular bitgan va quruq holatda bo‘lsa hamda zararlangan umumiy yuza maydoni 10 % dan oshmasa, ruxsat etiladi.

2.2.3. II sinf

Bu sinfga yuqori sinflarga kiritilmaydigan, ammo yuqoridagi 2.1-bo'limda ko'rsatilgan minimal talablarga javob beradigan zanjabil kiradi. Ildizpoyalar yetarlicha mustahkam bo‘lishi lozim. Biroq, quyidagi nuqsonlarga, agar zanjabil o‘zining sifati, saqlanish xususiyati va taqdimotiga oid asosiy xususiyatlarini saqlab qolgan bo‘lsa, ruxsat etilishi mumkin:

– Ishqalanish natijasida yuzaga kelgan po‘st nuqsonlari, agar ular bitgan va quruq holatda bo‘lsa hamda zararlangan umumiy yuza maydoni 15 foizdan oshmasa, ruxsat etiladi;

– unib chiqishning dastlabki belgilari (qadoqdagi mahsulot massasining 10%dan ko‘p bo‘lmagan miqdorda);

– hasharot-zararkunandalar yetkazgan kichik shikastlanishlar;

– bitgan yoriqlar, agar ular mutlaqo quruq bo‘lsa;

– yerning kam seziladigan izlari;

– urilish izlari.

3 O‘lchamlarga oid qoidalar

Zanjabilning o‘lchami uning og‘irligiga qarab belgilanadi.

O‘lcham toifasi	Og‘irlik tarozisi (g)
A	300
B	200
C	150

4 Ruxsat etiladigan toleranslarga oid qoidalar

Belgilangan sinf talablari to‘liq bajarilmagan mahsulot uchun sifat va o‘lcham bo‘yicha ayrim toleranslarga yo‘l qo‘yiladi.

4.1. Sifat bo‘yicha ruxsat etiladigan toleranslar

4.1.1. «Ekstra» sinfi

Soni yoki vazni bo‘yicha zanjabilning ko‘pi bilan 5 foizi mazkur toifa talablariga javob bermaydigan, biroq I toifa talablariga mos keladigan yoki alohida hollarda ushbu toifa uchun belgilangan ruxsat etilgan toleranslar doirasiga kiradigan bo‘lishi mumkin.

STANDARTLAR INSTITUTI HUZURIDAGI TEX... 25.12.2026 | O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

4.1.2. I sinf

Soni yoki vazni bo‘yicha zanjabilning ko‘pi bilan 10 foizi mazkur toifa talablariga javob bermaydigan, biroq II toifa talablariga mos keladigan yoki alohida hollarda ushbu toifa uchun belgilangan ruxsat etilgan toleranslar doirasiga kiradigan bo‘lishi mumkin.

4.1.3. II sinf

Soni yoki vazni bo‘yicha zanjabilning ko‘pi bilan 10 foizi mazkur toifa talablariga ham, minimal talablarga ham javob bermasligi mumkin, biroq chirigan yoki iste’mol uchun yaroqsiz holga keltiradigan boshqa buzilishlar kuzatilgan mahsulotlar bundan mustasno.

4.2. O‘lcham bo‘yicha ruxsat etiladigan toleranslar

“Ekstra” toifasi uchun soni yoki vazni bo‘yicha ko‘pi bilan 5 foiz, I va II toifalar uchun esa ko‘pi bilan 10 % zanjabil o‘lcham bo‘yicha belgilangan talablarga javob bermasligi mumkin.

5 Mahsulotning tovar ko‘rinishiga oid qoidalar

5.1. Bir xillik

Har bir qadoqning tarkibi bir xil bo‘lishi hamda unda faqat bir xil kelib chiqishga, navga va/yoki tijorat turiga, sifatga hamda o‘lchamga ega zanjabil bo‘lishi kerak. Qadoqning ko‘rinib turgan qismi butun qadoq tarkibiga mos kelishi kerak.

Bir qadoqdagi eng og‘ir zanjabil ildizpoyasining (rizomaning) vazni eng yengil zanjabil ildizpoyasi (rizoma) vaznidan ikki baravardan ortiq bo‘lmasligi kerak.

5.2. Qadoqlash

Zanjabil mahsulotni tegishli darajada himoya qiladigan tarzda qadoqlanishi kerak.. Idish ichida foydalaniladigan qadoqlash materiallari yangi, toza va sifatli bo‘lishi, mahsulotning ichki va tashqi shikastlanishlarining oldini olishi kerak. Materiallardan, xususan qog‘oz va savdo spetsifikatsiyasi tushirilgan yorliqlardan foydalanishga, agar matn yoki tamg‘alash qo‘llashda toksik bo‘lmagan siyoh va yelim ishlatilgan bo‘lsa, ruxsat etiladi.

Zanjabil har bir qadoqlash idishiga yangi meva va sabzavotlarni qadoqlash hamda tashish bo‘yicha tavsiya etilgan xalqaro amaliyot kodeksi (CAC/RCP 44-1995) talablariga muvofiq qadoqlanishi lozim.

5.2.1. Idish tavsifi

Qadoqlash idishlari zanjabilni tegishli tarzda tashish, jo‘natish va saqlashni ta’minlash uchun sifat, gigiyena, shamollatish va mustahkamlik xususiyatlari talablariga javob berishi kerak. Qadoqlash idishida begona modda va begona hidlar bo‘lmasligi kerak.

6 Tamg‘alash

6.1. Chakana qadoqlash

«Qadoqlangan oziq-ovqat mahsulotlarini tamg‘alash bo‘yicha umumiy standart (CODEX STAN 1-1985, Rev. 1-1991)» talablariga muvofiq quyidagi asosiy qoidalar qabul qilinadi:

6.1.1. Mahsulot xususiyati

Agar mahsulot shaffof bo‘lmagan qadoqda bo‘lsa, har bir qadoqda mahsulot nomi ko‘rsatilishi shart; shuningdek nav nomi va/yoki mahsulot toifasi ham ko‘rsatilishi mumkin.

6.2. Ulgurji savdo uchun idish

Har bir qadoqda quyidagi ma’lumotlar bir tomonda guruhlangan holda, aniq o‘qiladigan va o‘chmaydigan tarzda belgilanishi hamda tashqaridan ko‘rinadigan bo‘lishi yoki yuk jo‘natmasiga ilova qilinadigan hujjatlarda keltirilishi kerak.

6.2.1. Identifikatsiya

STANDARTLAR INSTITUTI AVTOMATIK TIZIMI 2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Eksportchi, qadoqlovchi va/yoki yuk jo‘natuvchining nomi va manzili. Identifikatsiya kodi (majburiy emas).

6.2.2. Mahsulot xususiyati

Mahsulot tashqaridan ko‘rinmaydigan bo‘lsa, mahsulot nomi ko‘rsatiladi. Nav nomi va/yoki mahsulot toifasi (majburiy emas).

6.2.3. Mahsulot kelib chiqishi

Kelib chiqish mamlakati va, ixtiyoriy ravishda, mahsulot yetishtirilgan hudud yoki viloyat, mintaqa yoxud joy nomi.

6.2.4. Mahsulot identifikatsiyasi

– sinf;

– o‘lcham (o‘lcham toifasi yoki minimal va maksimal massa, grammda);

– qadoqlash birliklari soni (majburiy emas);

– sof massa (majburiy emas).

6.2.5. Nazorat bo‘yicha rasmiy belgi (majburiy emas)

7 Ifloslantiruvchilar

7.1. Ushbu standartda qamrab olingan mahsulotlar Oziq-ovqat va yem-xashak tarkibidagi ifloslantiruvchi moddalar va toksinlar bo‘yicha Kodeksning Umumiy standartida (CODEX STAN 193-1995) belgilangan maksimal darajalarga muvofiq bo‘lishi kerak.

7.2. Ushbu standartda qamrab olingan mahsulotlar Kodeks Alimentarius Komissiyasi tomonidan belgilangan pestitsidlarning qoldiq miqdori bo‘yicha maksimal chegaralarga muvofiq bo‘lishi kerak.

8 Gigiyena talablari

8.1. Ushbu standart qamrab olgan mahsulotni tayyorlash va tashish «Tavsiya etilgan xalqaro texnik normalar va qoidalar. Oziq-ovqat gigiyenasining umumiy prinsiplari (CAC/RCP 1-1969, Rev. 4-2003)», «Yangi meva va sabzavotlar uchun gigiyenik normalar va qoidalar (CAC/RCP 53-2003)» hamda Kodeksning boshqa tegishli hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishi tavsiya etiladi.

8.2. Mahsulot «Oziq-ovqat mahsulotlari uchun mikrobiologik mezonlarni belgilash va qo‘llash prinsiplari (CAC/GL 21-1997)» ga muvofiq belgilangan barcha mikrobiologik mezonlarga javob berishi lozim.

STANDARTLAR INSTITUTI #Y1CI5OM5TX - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI